

O'zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi



Bugun, 21-fevral kuni Qohiradagi "Al-Ittihodiya" saroyida rasmiy tashrif bilan Misr Arab Respublikasida bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni tantanali kutib olish marosimi bo'lib o'tdi.


Saroy oldidagi maydonda oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi.


Misr Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi davlatimiz rahbarini samimiy qarshi olib, maxsus shohsupaga taklif etdi.

Harbiy orkestr ijrosida ikki mamlakat milliy madhiyalari yangradi.

So'ng davlat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

Birgalikda suratga tushishdan so'ng ikki tomonlama oliy darajadagi muzokaralar boshlandi.





Manba